

SO‘ROQ BELGISINING PRAGMATIK AHAMIYATI

Xayrulloeva Gulasal Fayzullo qizi

BuxDU o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: gulasalxayrulloeva@mail.com

Abduqodirova Shoyista Tohir qizi

BuxDU talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada so‘roq belgisining kelib chiqishi, tarixi: o‘zbek punktuatsiyasi taraqqiyotini ikki katta davrga bo‘linish, matnda qaysi o‘rinlarda ishlatilishi va uning gapdagi ahamiyati to‘g‘risida so‘z boradi. Ushbu belgining qo‘sha qo‘llanishi, so‘roq va ko‘pnuqta qo‘sha qo‘llanilishi haqida fikr yuritilgan. So‘roq belgilari yozuvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi yozuv orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy aloqa-aralashuvni to‘g‘ri ta‘minlash; yozma nutqdagi maqsad, mazmun va ma‘noni aniqlashtirish, farqlash; yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ko‘rsatib berish kabi pragmatik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Punktuatsiya, punktuatsiya taraqqiyoti so‘roq gaplar, tinish belgisi, grafik, so‘roq belgisi, ko‘pnuqta.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается происхождение и история вопросительного знака: разделение развития узбекской пунктуации на два основных периода, где он используется в тексте, и его значение в предложении. Обсуждалось двойное использование этого символа, вопросительное и многократное двойное использование. Вопросительные знаки ставятся в письменном виде между писателем и читателем. Надлежащее обеспечение социальной коммуникации-интервенции; уточнение и выделение цели, содержания и смысла письменной речи; Выделены такие прагматические особенности, как отображение сложных интеллектуальных отношений в письменной речи.

Ключевые слова: Пунктуация, пунктуационная разработка, вопросительные предложения, пунктуация, граф, вопросительный знак, множественное число.

ABSTRACT

This article discusses the origin and history of the question mark: the division of the development of Uzbek punctuation into two main periods, where it is used in the text, and its meaning in the sentence. The double use of this symbol, interrogative and repeated double use was discussed. Question marks are put in writing between the writer and the reader. Proper provision of social communication-intervention; clarification and highlighting the purpose, content and meaning of written speech; Such pragmatic features as the display of complex intellectual relations in written speech are highlighted.

Keywords: Punctuation, punctuation development, interrogative sentences, punctuation, graph, question mark, plural.

Punktuatsiya tinish belgilarining qo'llanilishi haqidagi yagona qonun-qoidalar yig'indisidir. Punktuatsiya tinish belgilarining miqdori, funktsiyasi, qo'llanish sistemasi va tartibini o'rgatadi. Harflar yig'indisi alfavitni, to'g'ri yozuv qoidalari yig'indisi orfografiyani, to'g'ri talaffuz normalari orfoepiyani tashkil etganidek, tinish belgilar sistemasi punktuatsiyani vujudga keltiradi.

O'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'llanishi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangandir. XIX asrning II yarmidan so'ng O'zbekistonda matbaachilikning paydo bo'lishi, kitob nashr etish ishlarining rivojlanishi o'zbek punktuatsiyasining shakllanishida muhim omillardan hisoblanadi. Hozirgi o'zbek punktuatsiyasining shakllanishi XIX asrning yetmishinchi yillariga to'g'ri keladi. O'zbek punktuatsiyasi taraqqiyotini ikki katta davrga bo'lib o'rganish mumkin: Birinchi davr, XIX asrning ikkinchi yarmidan to 1917-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr o'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'llana boshlashi, ularni qo'llashning odat tusiga kirishi va o'zbek punktuatsiyasining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi davr, 1917-yildan to hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr o'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'llanilishi muayyan tartibga kirganligi, o'zbek punktuatsiyasining sistemalashuvi va o'zbek grafikasining alohida bir qism sifatida o'rganilish bilan xarakterlanadi [1,6]. B.Bahridinova o'zbek punktuatsiyasi tarixini to'rt davrga bo'lish mumkinligini aytadi:

1. VIII asrlar. Bu davrga oid oromiy va turkiy runik yozuv manbalarida ishlatilgan tinish belgisi xarakteridagi vositalarning dastlabki vazifasi ajratish bo'lgan, ya'ni gap qismlari ma'lum oraliq masofa - intervallar vositasida ajratilgan. Bu ajratish hech qanday ma'no ifodalagan.

2. IX - XIX asrlar. Punktuatsiya taraqqiyotidagi bu davrda arab grafikasiga asoslangan eski o'zbek yozuvi amalda bo'lib, ajratuvchi belgilar tugallanganlik, xabar, so'roq, buyruq kabi semantik vazifalarni bajara boshlagan. Ma'nolarni farqlash uchun

nuqtaning turli ko‘rinishlaridan foydalanilgan. Ma’lumki, arab yozuvida o‘nga yaqin yozuvga yordamchi ishoralar bo‘lgan (ta’kid belgilari, ma’no belgilari, Qur’ondagi turish va determinativlar, bezak belgilari), ammo ular o‘zbek tili tabiatiga to‘la mos kelmaganligi sababli eski o‘zbek yozuviga o‘zlashtirilmagan.

3. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning oxirlarigacha bo‘lgan davr. Bu davrga kelib tinish belgilari tizimi va ularning vazifalari aniqlashdi. Matbaachilikning yuzaga kelishi, kitob, gazeta va jurnallarning ko‘plab nashr qilinishi yozma adabiy tilning ijtimoiy vazifasini kengaytirdi. O‘zbek imlosi me’yorlarining belgilanishi tinish belgilarini yanada takomillashtirish, qat’iy tizimga yig‘ish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Tarjimachilik rivojlanishi bilan boshqa tillarning, xususan, rus tilining ta’sirida tom ma’nodagi tinish belgilari tizimi yuzaga keldi. O‘zbek tili punktuatsiyasi nazariy asoslandi, tasnif qilindi, tinish belgilarining qo‘llanilishi qoidalashtirildi.

4. XX asrning 90-yillaridan hozirgacha bo‘lgan davr. Sohada izlanishlar olib borgan tilshunoslar tomonidan punktuatsiyaning istiqlolgacha bo‘lgan tarixi davrlashtirilib, har bir davrda amalga oshirilgan ishlar tavsiflangan. Mustaqillik davrida punktuatsiya tarixida yuz berayotgan o‘zgarishlar maxsus o‘rganishni talab etmoqda. Nafaqat punktuatsiya tarixi, balki butun o‘zbek xalqi tarixida bu davr qator o‘zgarishlar, islohotlar, taraqqiyot bosqichini boshlab berdi.

So‘roq belgisi – gap oxirida qo‘llanadigan tinish belgisi hisoblanadi. Bu belgi asosan mazmunida so‘rash manosi anglashilgan gaplardan so‘ng qo‘yiladi. Ushbu gapning mazmunia ham tasir o‘tqazadi. So‘zlovchiga noma’lum voqelik haqida so‘rashni ifodalovchi gap so‘roq gap deyiladi. Bunday gaplar alohida ohang bilan, maxsus so‘roq ifodalovchi so‘zlar bilan keladi. Masalan: Ajab, kasallik tegmasa, qurg‘oqchilik bo‘lmasa, o‘g‘it-parvarish joyida esa, nega quriydi?...(U. H.)

Bazi manbalarga ko‘ra, 18-asr o‘rtalarida savol manosini beruvchi belgiga ehtiyoj sezila boshlagan. Ammo undan foydalanish bir asr o‘tkach, toki umumiy qoidalar ishlab chiqulganga qadar aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Shunga qaramay, raqamli davr tufayli energiya va vaqtni tejash maqsadida qisman (?) qabul qilingan. Garchi bazi puristlar uchun bu tilning yo‘qotishini bashorat qilishi mumkin bo‘lsa ham, ba’zilar norasmiy suhbat uchun jiddiylik yo‘qligini ko‘rsatadi.

Ushbu grafik lotincha “quaestio” iborasidan kelib chiqib, savolni anglatadi. Ilgarilari ushbu so‘z savol manosini anglatishi uchun jumla boshida qo‘yilgan. Biroq, vaqt o‘tishi bilan bu so‘z qisqarib “Qo” ga aylandi. Bu grafikning birinchi ko‘rinishilari birinchi marta o‘rta asrlarning lotin qo‘lyozmalarida ko‘zga tashlanadi. Aslida esa fransuz kelib chiqishi sulolasi bo‘lgan Korolinlar merosi bolganli haqida ham taxminlar mavjid. Steven R. Fischer o‘zining “Yozuvlar tarixi” asarida malumot berib o‘tadi. XIX asr oxirlarida o‘zbek tiliga rus tilidan o‘zlashib kirib kelgan. Dastlab “Turkiston viloyatining gazetisi” ning ba’zi matnlarida qo‘llangan.

So‘roq belgisi o‘zbek adabiy tilida quyidagi o‘rinlarda qo‘laniladi:

1) sof so‘roq gaplar oxirida qo‘yiladi. Bunday gaplar tarkibida so‘roqni bildiruvchi leksik yoki grammatik vositalar: so‘roq olmoshlari va so‘roq yuklamalari ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligi mumkin. Masalan: Ularni qachon ko‘rganding? So‘liging yaxshimi?

2) so‘roq ma‘nosi yozuvda so‘roq belgisi bilan, og‘zaki nutqda ohang bilan ifodalanadi. Masalan: soat besh bo‘ldi- soat besh bo‘ldi?

3) taqrizlarda, iqtiboslarda biron so‘z yoki jumla noaniq bo‘lsa, xato qo‘llansa, gumon va anglashilmovchilikni bildirsa, o‘sha so‘z yoki jumladan so‘ng qavsga o‘ragan holda qo‘yiladi.

4) jumladagi xato juda qo‘pol bo‘lsa, So‘roq belgisi qo‘sha qo‘llanishi mumkin.

5) so‘roq ran tipidagi sarlavhalardan keyin qo‘llanadi: Teatr yoshlarga nima berdi? Huquqiy me‘yorlarni bilasizmi?

6) ritorik so‘roq gaplar oxirida ba‘zan so‘roq belgi, ba‘zan so‘roq va undov belgilari qo‘sha qo‘llanadi: Dunyoda onadan ulug‘ zot bormi?!

Sof so‘roq ma‘nosini anglatuvchi gaplar oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi. Bunday gaplar ikki xil shakllangan bo‘ladi: a) so‘roqni bildiruvchi grammatik vositalar ishtirok etadi:—Endi ketib solmaysizmi? Ha, nima, uyalasanmi, kap-katta siz-a? (G‘. G‘.) b) so‘roq- ni bildiruvchi grammatik vositalar ishtirok etmaydi: bundagi so‘roq ma‘nosi yozuvda so‘roq belgisi orqali, og‘zaki nutqda intonatsiya orqali bilinadi: To‘ygacha so‘limni ham ushlatmayman deysiz chog‘i? (Uyg‘un) Qo‘shma gaplarda so‘roq belgisining ishlatilishi ancha murakkab bo‘lib, quyidagi holatlarda qo‘llanadi: a) qo‘shma gapning har ikki (yoki barcha) komponentlaridan so‘roh ma‘nosi anglashilganda; b) ergash gapli qo‘shma gaplarda so‘roq ma‘nosi bosh gap orqali ifodalanganda:

Keldingizmi, qayoqda yuribsiz, rais opa sizga hech narsa demadilarmi? (S. Ahmad). Axir, har borganin- gizda, pochchangiz kuruq qo‘ymas? (A. Q.)

Qanday uxlar, oyli tun sizning Yuragiga hayajon solsa? (U.)

O‘zing-ku xatingda quyoshim debsan,

Nega G‘arbga ketsam yig‘laysan to‘lib? (U.)

Shuningdek, so‘roq gap tipidagi sarlavhalardai so‘ng so‘roq belgisi qo‘llaniladi [6].

Taqrizlarda yoki sitatalarda biron so‘z yoki jumla noaniqlik, gumon yoki anglashilmovchilikni bildirsa, bunday so‘z va jumladan so‘ng so‘roq belgisi qavsga o‘ralgan holda qo‘yiladi. Masalan: «Onaning bokira siynasida (?) gavdalangan...», kampir o‘zining sodda tafakkuri, o‘tmish ongi (?) bilan, tilidagi o‘zbekcha joziba (?) bilan esda qoladi.

Tinish belgilarining qo'sha qo'llanishi turlicha xa-rakgerga ega bo'lib, o'z mohiyatiga ko'ra uch xil holatda uchraydi [4].

1. Takroriy qo'sha qo'llanish. Bunda bir tinish belgi takrorlanish asosida qo'sha qo'llanadi. Masalan, so'roq belgisi ikkitagacha (??), takror qo'llana oladi.

2. Oddiy qo'sha qo'llanish. Bunda har xil tipdagi 2 tinish belgisi birgalikda ishlatiladi ?!, ?.....

So'roq belgisi bir o'rinda ikki martagacha takror qo'llanishi mumkin. Masalan: Sen ham odam bo'lib kitob o'qisan -chi??

So'roq belgisi, so'ng undov belgisi yoziladi. Masalan: —Ikkovimiz ham ishdan olinibmaz.—A?! Hosil ikki baravar ko'p-a! Hazilakammi?!

Jumladan, so'roq va undov belgilari birga ishlatil- ganda, hech vaqt undov belgisi oldin qo'yilmaydi: Nega kerak bekorchi hasrat!?! tipida qo'llash xatodir [5].

So'roq va ko'pnuqta qo'sha qo'llanganda, har vaqt so'roq belgisi oldin qo'yiladi. Masalan:

Nima silsin endi shu damda?...

Kim o'zadi musobaqada?... (U.)

So'roq va qavs belilari qo'sha qo'llanishi mumkin: – Ikkinchi gap nima haqida aytilganligini qaysi so'z bildiriyapti? (Mevalar)

Xulosa qilib shuni aytishm mumkinki so'roq belgisi ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan punktuatsion belgi. U matinda nafaqat so'roqni bildiruvchi so'zlar balkim so'roq ohanggi anglashilgan fikirdan so'ng ham qo'yiladi. Bu belgining matnlarda alohoda o'rni mavjud bo'lib, inson vaqtini tejash uchun ishlab chiqilgan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Alimuhammedov R. Qadimgi turkiy bitiklarda punktuatsiya va matnni anglash uchun ishlatilgan ishoralar haqida //Xorijiy filologiya. 1-son. –Toshkent, 2016.
2. Bahriddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: «Akademnashr», 2015.
3. Abdurakhmonova N., Alisher I. and Toirova G., "Applying Web Crawler Technologies for Compiling Parallel Corpora as one Stage of Natural Language Processing," 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 73-75, doi: 10.1109/UBMK55850.2022.9919521.
4. "O'zbek tili me'yorlari" (Punktuatsiya) -Toshkent: Zamin nashr, 2021, -232 b.
5. Назаров К. Ўзбек тили пунктуацияси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
6. Назаров К., Эгамбердиев Б. Узбек тили ишора-имло қоидалари (Пунктуация). - Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

7. Toirova G., Yuldasheva M., Elibaeva I. Importance of Interface in Creating Corpus. // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. –P.352-355.
8. Toirova, G., (2019). The Role of Setting in Linguistic Modeling. International Multilingual Journal of Science and Technology, 4(9):722-723, available at: <http://imjst.org/index.php/vol-4-issue-9-september-2019/>.
9. G‘oziyev H. O‘zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti. «Fan» nashriyoti. – Toshkent. 1979
10. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. Тузувчилар: Н.М.Маҳмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Маҳкамов. — Тошкент: «O‘zbekiston» НМИУ, 2015.
11. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида пунктуация. - Тошкент, 1955.
12. Xayrulloeva Gulasal Fayzullo qizi. Individuality in the Interchangeable Use of Punctuation. Spanish Journal of Innovation and Integrity <http://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/844/956>